



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

Izoh: 2024-yil yanvar-iyun hamda 2024-yil 1-iyul holatiga
ma'lumotlar dastlabki, qolgan davrlar bo'yicha yakuniy
ma'lumotlar keltirilgan.




2024-yil yanvar-iyun

BUXORO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI



2024- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Demografiya statistikasi – ijtimoiy-iqtisodiy statistikaning sohalaridan biri bo'lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig'ish, qayta ishslash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug'ullanadi;

Buxoro viloyatida 2024- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **2057,7 ming kishini** tashkil etib, yil boshigan **13,7 ming kishiga** yoki **0,7 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **759,3 ming kishini** (jami aholi sonidagi ulushi **36,9 %**), qishloq aholisi soni **1 298,4 ming kishi** (**63,1 %**)ni tashkil etdi.




Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turgan, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi;

Doimiy aholi soni**2 057,7** *ming kishi***Tabiiy o'sish****+15,4** *ming kishi***Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi***2024- yil 1-iyul holatiga***Shahar****36,9%****Qishloq****63,1%****Doimiy aholi sonining taqsimlanishi***2024- yil 1- iyul holatiga***Erkaklar****50,1%****1 031,8** *ming kishi***Ayollar****49,9%****1025,9** *ming kishi*

Buxoro viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni 2024- yil 1- iyul holatiga

Hududlar kesimida doimiy aholi soni, ming kishi




Hududlar bo'yicha doimiy aholisi soni eng ko'p G'ijduvon tumanida **324,8** ming kishi, Buxoro shahrida **297,4** ming kishi, Shofirkon tumanida **187,0** ming kishi, eng kam aholi soni Qorovulbozor tumanida **20,2** ming kishi, Kogon shahrida **65,1** ming kishi va Kogon tumanida **85,3** ming kishini tashkil etgan.

Doimiy aholisi soni eng ko'p bo'lgan shahar/shaharchalar



Doimiy aholisi soni eng ko'p Buxoro shahrida **297,4** ming kishi, Kogon shahrida **65,1** ming kishi, G'ijduvon shahrida **50,8** ming kishi, Qorako'l shahrida esa **26,0** ming kishi va Vobkent shahrida **20,8** ming kishini tashkil etgan.

Doimiy aholisi soni eng kam bo'lgan shahar/shaharchalar



Doimiy aholisi soni eng kam O'zbekiston shaharchasida **2,5** ming kishi, Qirtay shaharchasida **2,5** ming kishi, Mahallai-Mirishkor shaharchasida **2,5** ming kishi, G'ulomte shaharchasida **2,6** ming kishi va Kosari shaharchasida **2,6** ming kishi.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2024- yil 1- yanvar holatiga



75,2 yosh


78,5 yosh

2024-yilning 1-yanvar holatiga Buxoro viloyati aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **76,8** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **75,2** yoshga, ayollar uchun esa **78,5** yoshga teng. Shahar joylar **76,1** uchun yoshni va qishloq joylarida **76,9** kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi tashkil etgan.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi – tug‘ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish yillari soni. Bunda ushbu ko‘rsatkich hisoblangan yildagi yoshlar bo‘yicha o‘lim darajasi saqlanib qoladi deb hisoblanadi;

Aholi sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil 1- yanvar holatiga




2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, viloyat doimiy aholisi sonining **29,6** % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **57,2** % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **13,2** % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Mehnatga layoqatli yoshdagagi aholi soni – Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi);

Buxoro viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Buxoro viloyatida 2024- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **51,2** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,9** kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga **50,3** kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahrida **4 248,6** kishi, Kogon shahrida **3 255,0** kishi, Vobkent tumanida **516,6** kishi, Kogon tumanida **170,6** kishini, Buxoro tumanida **136,2** kishi tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumanida **9,2** kishi, Peshku tumanida **15,1** kishi, Qorako'l tumanida **19,9** kishi, Olot tumanida **32,5** kishi, Jondor tumanida **36,1** kishi, Shofirkon tumanida **50,3** kishini tashkil etgan.

Aholi zichligi – muayyan hududdagi doimiy aholining umumiy sonini shu hudud maydoniga nisbati orqali aniqlanadi;


Buxoro viloyati hududlari bo'yicha qayd etilgan tug'ilishlar
2024- yil yanvar- iyun

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti, kishi



Hududlar bo'yicha tug'ilish eng yuqori Buxoro shahrida **3 657** kishi, G'ijduvon tumanida **3 554** kishi, Jondor tumanida **1 628** kishi, eng kam ko'satkich Qorovulbozor tumanida **165** kishi, Kogon shahrida **554** kishi va Kogon tumanida **847** kishini tashkil etgan.

Tug'ilish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar



Tug'ilish koeffitsiyenti eng yuqori Buxoro shahrida **24,8** promille, G'ijduvon tumanida **22,1** promille, Vobkent tumanida **21,5** promille, Olot tumanida **20,3** promille va Kogon tumanida **20,1** promilleni tashkil etgan.



Tug'ilish koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar



Tug'ilish koeffitsiyenti eng kam tuman, shaharlardan Romitan tumanida **14,2** promille, Shofirkon tumanida **15,0** promille, Qorovulbozor tumanida **16,6** promille, Peshku shahrida **16,9** promille va Kogon shahrida **17,2** promilleni tashkil etgan.

Buxoro viloyatida tirik tug‘ilganlar

2024- yil yanvar- iyun

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,
ming kishi**

**O’sish sur’ati,
% da**

Jinslar kesimida taqsimlanishi
O‘g‘il bolalar

**10,2
ming kishi**
Qiz bolalar

**9,6
ming kishi**
**Shahar va qishloq joylar
bo‘yicha taqsimlanishi**
Shahar

**8,3
ming kishi**
Qishloq

**11,5
ming kishi**
**Tug‘ilganlarning taqsimlanishi,
kishi/ulushi**
O‘g‘il bolalar
Yanvar-mart

4 886

4 623
Yanvar-iyun

10 246


9 580

2024- yil yanvar- iyun oylarida tirik tug‘ilganlar soni **19,8** ming kishini tashkil etdi, shundan o‘g‘il bolalar soni **10,2** ming kishini, qiz bolalar soni **9,6** ming kishi, tug‘ilganlar soni shahar joylarida **8,3** ming kishini, qishloq joylarida **11,5** ming kishini tashkil etdi.

Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan tug‘ilishlar soni iyun oyida qayd etilgan **3 711** nafar bo‘lib, aksincha, eng kam tug‘ilishlar esa fevral oyida **2 966** nafar qayd etilgan.

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar- iyun



2024- yilning yanvar - iyun oylarida qayd etilgan egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi: 1 nafar tug‘ilganlar **97,4 %** ni 2 nafar egizak tug‘ilganlar **2,5 %** ni 3 nafar va undan ortiq egizak tug‘ilganlar **0,1 %** ni tashkil etdi.

Ota-onasining yoshi bo‘yicha tug‘ilganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar- iyun




2024- yil yanvar-iyun oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **12,6 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **82,3 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **5,1 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **38,6 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **60,2 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,2 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.

Buxoro viloyati hududlari bo'yicha qayd etilgan o'limlar

2024- yil yanvar-iyun

Hududlar kesimida o'limlar soni va koeffitsiyenti, kishi



Hududlar bo'yicha vafot etishi eng yuqori Buxoro shahrida **748** kishi, G'ijduvon tumanida **691** kishi, Shofirkon tumatida **442** kishi va Jondor tumanida **383** kishi, eng kam ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **32** kishi, Kogon shahrida **152** kishi va Kogon tumatida **219** kishini tashkil etgan.

O'lim koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar



O'lim koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan Kogon tumanida **5,2** promille, Buxoro shahrida **5,1** promille, Shofirkon tumanida **4,8** promille, Kogon shahrida **4,7** promille va Olot tumanida **4,4** promilleni tashkil etgan.

O'lim koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar




O'lim koeffitsiyenti eng kam bo'lgan Qorovulbozor tumanida **3,2** promille, Romitan tumanida **3,4** promille, Buxoro tumanida **3,6** promille, Vobkent tumanida **3,8** promille va Jondor tumanida **4,1** promilleni tashkil etgan.

Buxoro viloyati bo'yicha qayd etilgan o'limlar

2024- yil yanvar- iyun

**Yillar bo'yicha taqsimlanishi,
ming kishi**

**O'sish sur'ati,
% da**

Jinslar kesimida taqsimlanishi
Erkaklar

54,5 %

ming kishi

Ayollar

45,5 %

ming kishi

**Shahar va qishloq joylar
bo'yicha taqsimlanishi**
Shahar

45,4 %
2,0

ming kishi

Qishloq

54,6 %
2,4

ming kishi

**Vafot etganlarning taqsimlanishi,
kishi/ulushi**
Erkaklar

53,7 %
1135
Ayollar

46,3 %
977
Yanvar-mart
Yanvar-iyun

53,5 %
2 353

46,5 %
2 044



2024- yil yanvar-iyun oylarida vafot etganlar soni **4,4** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **2,4** ming kishini, ayollar soni **2,0** ming kishi, vafot etganlar soni shahar joyalarida **2,0** ming kishini, qishloq joyalarida **2,4** ming kishini tashkil etdi.

Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan vafot etganlar soni iyun oyida qayd etilgan **803** nafar bo'lib, aksincha, eng kam vafot etganlar esa yanvar oyida **666** nafar qayd etilgan.

O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar- iyun, kishi


O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari;



2024- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **66,5** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **10,6** % i – o‘simalardan, **5,0** % i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **4,7** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,3** % i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **0,7** % i – Yuqumli va parazitar kasalliklardan, **9,2** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

Buxoro viloyati hududlarida qayd etilgan nikohlar

2024- yil yanvar- iyun

**Hududlar kesimida nikohlar soni
va koeffitsiyenti, birlik**


Hududlar bo'yicha nikohlar soni eng yuqori Buxoro shahrida **876** kishi, G'ijduvon tumanida **846** kishi, Buxoro tumanida **551** kishi, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **40** kishi, Kogon shahrida **128** kishi va Kogon tumanida **265** kishini tashkil etgan.

**Nikoh koeffitsiyenti eng yuqori
bo'lgan shahar/tumanlar**



Nikoh koeffitsiyenti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Olot tumanida **7,1** promille, Kogon tumanida **6,3** promille, Buxoro tumanida **6,2** promille, Buxoro shahrida va Vobkent tumanda **6,0** promilleni tashkil etgan.

**O'lim koeffitsiyenti eng past
bo'lgan shahar/tumanlar**



Nikoh koeffitsiyenti bo'yicha eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumani va Kogon shahrida **4,0** promille, Romitan tumanida **4,9** promille, G'ijduvon tumanida **5,3** promille va Shofirkon tumanida **5,5** promilleni tashkil etgan.

Buxoro viloyatida qayd etilgan nikohlar 2024- yil yanvar- iyun

Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,
ming birlik




O‘sish sur’ati,
% da



2024- yil yanvar- iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **5,8** ming birlikni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **0,1** birlikka kamaygan. Har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,7** promilleni tashkil etgan hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **5,9** promillega kamayganligi kuzatildi.


Shahar va qishloq joylar
bo‘yicha taqsimlanishi



Nikohlarning taqsimlanishi,
birlik/ulushi

Shahar Qishloq

Yanvar-mart



Yanvar- iyun




2024- yil yanvar-iyun oylarida nikoh qurbanlarning soni **5,8** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **2,3** mingtani (**39,7 %**), qishloq joylarida **3,5** mingtani (**60,3 %**) tashkil etdi.

Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan nikoh qurbanlar soni yanvar oyida **1 246** nafar aksincha, eng kam nikoh qurbanlar esa aprel oyida **846** nafarni tashkil etgan.

Buxoro viloyati hududlari bo'yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar 2024- yil yanvar- iyun

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik



Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlarning soni eng yuqori Buxoro shahrida **296** kishi, G'ijduvon tumanida **160** kishi, Shofirkon tumanida **101** kishi, eng kam ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **9** kishi, Romitan tumanida **46** kishi va Jondor tumanida **49** kishini tashkil etgan.

Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar



Nikohdan ajralish koeffitsiyenti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida **2,0** promille, Kogon shahrida **1,5** promille, Kogon tumanida **1,3** promille, Olot va G'ijduvon tumanlarida **1,1** promilleni tashkil etgan.


Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar



Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo'lgan Romitan tumanida **0,6** promille, Jondor tumanida **0,7** promille, Vobkent, Qorako'l va Qorovulbozor tumanlarida **0,9** promilleni tashkil etgan.

Buxoro viloyati bo'yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar 2024- yil yanvar-iyun


**Yillar bo'yicha taqsimlanishi,
ming birlik**



2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.


2024- yil yanvar-iyun oylarida 1,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,1 promille tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan o'zgarmaganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-iyun oylarida 1,2 promille bo'lgan).

**Shahar va qishloq joylar
bo'yicha taqsimlanishi**




2024- yil yanvar-iyun oylarida nikohdan ajralishlarni soni **1,2** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **0,7** mingtani, (**58,3 %**), qishloq joylarida **0,5** mingtani (**41,7 %**) tashkil etdi.

**O'sish sur'ati,
% da**



2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.


**Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi,
birlik/ulushi**



Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni may oyida **218** nafar aksincha, eng kam nikohdan ajralishlar esa iyun oyida **147** nafarni tashkil etgan.

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun



2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **45,8** % i farzandsiz, **28,3** % i bitta farzand bilan va **25,9** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlarning o'rtacha yoshi

Nikohdan ajrashganlarning o'rtacha yoshi 2024- yilning yanvar-iyun oylarida erkaklar uchun **36,0** yoshni, ayollar uchun **33,0** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi **29** yoshlilarga to'g'ri kelgan, y'ani jami nikohdan ajrashganlarning **5,8** % ini tashkil etgan.

Buxoro viloyati bo'yicha jami ko'chib kelganlar


2024- yil yanvar-iyun

Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti, kishi


Hududlar bo'yicha ko'chib kelish eng yuqori Buxoro shahrida **1 326** kishi, Buxoro tumanida **619** kishi, G'ijduvon tumanida **419** kishi, eng kam ko'rsatkich Romitan tumanida **78** kishi, Olot tumanida **87** kishi va Peshku tumanida **103** kishini tashkil etgan.

Ko'chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar




Ko'chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori Qorovulbozor tumani **23,0** promille, Kogon shahri **10,0** promille, Kogon tumani **9,6** promille, Buxoro shahri **9,0** promille va Buxoro tumani **6,9** promilleni tashkil etgan.

Ko'chib kelish koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar


Ko'chib kelish koeffitsiyenti eng kam bo'lgan Romitan tumani **1,0** promille, Qorako'l tumani **1,3** promille, Peshku tumani **1,6** promille va Jondor tumani **1,7** promilleni tashkil etgan.

Buxoro viloyati bo'yicha jami ko'chib kelganlar

2024- yil yanvar-iyun

**Yillar bo'yicha taqsimlanishi,
ming kishi**

**O'sish sur'ati,
% da**

2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.
Jinslar kesimida taqsimlanishi
Erkaklar

41,9 %
**1,8
ming kishi**
Ayollar

58,1 %
**2,5
ming kishi**
**Shahar va qishloq joylar
bo'yicha taqsimlanishi**
Shahar

60,5 %
**2,6
ming kishi**
Qishloq

39,5 %
**1,7
ming kishi**

2024- yil yanvar-iyun oylarida ko'chib kelganlar soni 4,3 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 1,8 ming kishini, ayollar soni 2,5 ming kishi, ko'chib kelganlar soni shahar joylarida 2,6 ming kishini, qishloq joylarida 1,7 ming kishini tashkil etdi.

**Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi,
kishi/ulushi**
Erkaklar

43,0 %
920
Ayollar

57,0 %
1 220
Yanvar-mart


41,9 %
1 791

58,1 %
2 479
Yanvar-iyun

Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan ko'chib kelganlar soni yanvar oyida 788 nafar aksincha, eng kam ko'chib kelganlar esa mart oyida 613 nafarni tashkil qilgan.

Buxoro viloyati hududlari bo'yicha jami ko'chib ketganlar

2024- yil yanvar-iyun

Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti, kishi


Hududlar bo'yicha ko'chib ketish eng yuqori Buxoro shahrida **1 344** kishi, G'ijduvon tumanida **998** kishi, Shofirkon tumanida **627** kishi, eng kam ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **124** kishi, Peshku tumanida **200** kishi va Olot tumanida **229** kishini tashkil etgan.

Ko'chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar



Ko'chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori Qorovulbozor tumani **12,5** promille, Kogon shahri **9,6** promille, Buxoro shahri **9,1** promille, Kogon tumani **7,8** promille va Shofirkon tumani **6,8** promilleni tashkil etgan.

Ko'chib ketish koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar


Ko'chib ketish koeffitsiyenti eng past Peshku tumani **3,1** promille, Jondor va Romitan tumanlari **3,4** promille, Olot tumani **4,4** promille va Vobkent tumani **5,2** promilleni tashkil etgan.

Buxoro viloyati hududlari bo'yicha jami ko'chib ketganlar 2024- yil yanvar-iyun

**Yillar bo'yicha taqsimlanishi,
ming kishi**



**O'sish sur'ati,
% da**




Jinslar kesimida taqsimlanishi

Erkaklar




Ayollar



**Shahar va qishloq joylar
bo'yicha taqsimlanishi**

Shahar




Qishloq



**Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi,
kishi/ulushi**

Erkaklar




Ayollar



Yanvar-mart



Yanvar-iyun



2024- yil yanvar-iyun oylarida ko'chib ketganlar soni **6,1** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **2,9** ming kishini, ayollar soni **3,2** ming kishi, ko'chib ketganlar soni shahar joylarida **3,3** ming kishini, qishloq joylarida **2,8** ming kishini tashkil etdi.

Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan ko'chib ketganlar soni fevral oyida **1 073** nafar aksincha, eng kam ko'chib ketganlar esa mart oyida **824** nafarni tashkil etgan.

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migrantsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi
Tel: 71 230-83-16, 65 223-83-37